

## **BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI MA’NAVIY-MA’RIFIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING DOLZARB PEDAGOGIK ZARURIYAT**

*Abdullayev Azizbek Abdukaxarovich,*

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy milliy himoya agentligi huzuridagi Ijtimoiy inspeksiyasi Farg‘ona viloyati boshqarmasi boshlig‘i, mustaqil tadqiqotchisi*

*Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida ma’naviy-axloqiy, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat masalalarining dolzarbligi asoslangan, ma’naviyat atamasi etimologiyasi, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat muammosi doirasida ish olib borgan olimlarning fikrlari bayon qilingan.*

*Kalit so‘zlar: ma’naviyat, ma’naviy-axloqiy, ma’naviy-ma’rifiy, mafkuraviy immunitet, talaba, ta’lim, tarbiya.*

## **THE ESSENTIAL PEDAGOGICAL NEED TO PREPARE FUTURE TEACHERS FOR SPIRITUAL AND EDUCATIONAL ACTIVITY**

*Abdullayev Azizbek Abdukaharovich,*

*Head of the Department of Social Inspection of the Fergana region under the National Agency for Social Protection under the President of the Republic of Uzbekistan, independent researcher*

*Abstract. In this article, the relevance of issues of spiritual-ethical, spiritual-educational activity is based on the decisions of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan and the President of the Republic of Uzbekistan, the etymology of the term spirituality, work within the problem of spiritual-educational activity the opinions of the leading scientists are stated.*

*Key words: spirituality, spiritual-ethical, spiritual-educational, ideological immunity, student, education, training.*

## **ОСНОВНАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ДУХОВНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

*Абдуллаев Азизбек Абдукахарович,*

*Начальник управления социальной инспекции Ферганской области Национального агентства социальной защиты при Президенте Республики Узбекистан, независимый исследователь*

*Абстракт. В данной статье актуальность вопросов духовно-этической, духовно-просветительской деятельности основана на решениях Кабинета Министров Республики Узбекистан и Президента Республики Узбекистан, этимологии термина духовность, работе в рамках по проблеме духовно-просветительской деятельности изложены мнения ведущих ученых.*

*Ключевые слова: духовность, духовно-нравственный, духовно-воспитательный, идеологический иммунитет, учащийся, образование, воспитание.*

*Kirish. Mamlakatimizda keyingi yillarda uzluksiz ta’limning har bir bo‘g‘inida tarbiya tizimini takomillashtirish va bu jarayonga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning huquqiy-meyoriy asoslari yaratildi. «Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuvni amalga oshirishda ta’lim muassasalari, oila va mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini*

to‘liq yuzaga chiqarish, ular orasida milliy, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ilmiy-metodik uzviylikni sifat jihatdan yuqori darajaga ko‘tarish» kabi ijtimoiy pedagogik vazifalar belgilab berildi. Buning natijasida O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi talablari asosida yoshlarda tayanch ma‘naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalashning mazmunini takomillashtirish, axborotli muhitda tezkor ta‘sir chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llash mexanizmlarini modernizatsiyalash imkoniyati kengaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son Qarorida [1] milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda xushyorlik, ma‘naviy mas‘uliyat tuyg‘usining to‘g‘ri shakllanganligi, voqelikka qadriyatli munosabatni to‘g‘ri vujudga keltirishda tarbiyachi-pedagog, ustoz-murabbiyning kasbiy tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatga tayyorlash yuqoridagi fikrning amaliy ijrosi sifatida qarash mumkin bo‘ladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatga tayyorlash tizimini modernizatsiyalash dolzarbligi va muhimligi, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy ehtiyojlarini qondirishda, ta‘lim tizimining barqaror rivojlanishini ta‘minlashda muhim jarayon hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarorida belgilangan Konsepsiyani amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri – aholining farzand tarbiyasi bo‘yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma‘naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o‘tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borishdir [2]. Konsepsiyaning maqsadi – yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirish iborat. Konsepsiyada ma‘naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi. Homiladorlik davridan boshlanadigan va 30 yoshga to‘lguniga qadar davom ettiriladigan uzluksiz ma‘naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-onalar, tarbiyachilar, o‘qituvchilar va mahallaning rolini oshirish nazarda tutiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi, Xalq ta‘limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi va “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi bilan birgalikda “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasi” loyihasi ishlab chiqildi. Mazkur konsepsiya: ma‘naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlari; bola tarbiyasida milliy tarbiya metodlari va zamonaviy pedagogikaning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish shakllari; ma‘naviy tarbiyani shakllantirishda oila, ta‘lim muassasalari, mahalla, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o‘rtasida samarali hamkorlikni o‘rnatish mexanizmlari; tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borishni nazarda tutuvchi uzluksiz ma‘naviy tarbiya tizimi; ma‘naviy tarbiyani shakllantirishning homiladorlik davridan boshlanishi va tarbiyaning har bir bosqichdagi o‘ziga xos xususiyatlari; ma‘naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishini belgilab beradi. Shuningdek, mazkur Qaror bilan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika kengashi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi bilan birgalikda “Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitning holatini aniqlash va manzilli sog‘lomlashtirish metodikasi” loyihasi ishlab chiqildi.

Ma'naviyat va ma'rifat Markazi huzurida "Ma'naviyat targ'ibotchisi" ta'lim muassasasi tashkil etildi. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi qoshida "Madaniyat va ma'rifat" telekanali tashkil etilishi ham sohaning hozirgi axborot asrida katta ahamiyatli deb qaraladi. Shuningdek, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, Xalqaro press-klub va boshqa ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda aholining intellektual salohiyati, dunyoqarashini yuksaltirishga, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga, barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan maqolalar, tok-shoular, ijtimoiy roliklar, ko'rsatuvlar, publitsistik chiqishlar va eshittirishlar tashkil qilinib kelinmoqda. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishdagi, yuksak ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishdagi samarali mehnati va ibratli faoliyati uchun davlat organlari va tashkilotlar xodimlariga "Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishoni ta'sis etildi. Markaz huzurida "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati nodavlat notijorat tashkiloti shaklida ta'sis etildi[3].

Ma'naviy-ma'rifiy sohaga oid qonun, meyoriy hujjatlar tahlili asosida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning hozirgi davrdagi ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish; oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti, maktab, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, barcha ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligi hamda uzluksizligini ta'minlash;

g'oyaviy va axborot hurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, axborot tarmoqlaridan foydalanish madaniyatini rivojlantirish;

global dunyodagi geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish;

terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish, o'z shaxsiy pozitsiyasini shakllantirish;

el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish va boshq.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga doir ilmiy tadqiqotlar respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan olib boriladi. Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-ijtimoiy mavzulardagi dolzarb maqolalar, jamoatchilik vakillarining ilg'or fikrlari, mafkuraviy jarayonlar tahlili, sohaga oid yangiliklarni to'plash, tayyorlash va tarqatish maqsadida "oyina.uz" elektron portali tashkil etildi.

Davlat oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallarida, talabalar sonidan qat'iy nazar, yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor (direktor o'rinbosari) lavozimi joriy etildi. Barcha tuman va shaharlarda "Ma'naviyat va ma'rifat maskani" tashkil etildi. 2021-2022 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim tizimining tegishli ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalariga bakalavriyat bosqichida – "Ma'naviyatshunoslik" fani; magistratura bosqichida – "Kasbiy ma'naviyat" fani kiritildi, magistratura bosqichida "PR-menejer" mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlanishi yo'lga qo'yiladi.

Oliy ta'limning asosiy vazifalari qatoriga Davlat ta'lim standartiga muvofiq zamonaviy dasturlar asosida o'qitishning sifatini ta'minlash, oliy malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash bilan bir qatorda oliy ta'limning insonparvarligini ta'minlash maqsadida yoshlar tarbiyasiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish kiradi. Oliy ta'lim muassasalarida, ayniqsa pedagogika yo'nalishlarida yuqori malakali o'qituvchilar tayyorlashda, talabalarning shaxsiy rivojlanganligi, ularda yuksak insoniy fazilatlar va kasbiy professionallik rivojlanganligi ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ijtimoiy-



iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta‘lim tizimini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Pedagogik oliy ta‘lim muassasalari o‘quv rejasiga kiritilgan “Umumiy pedagogika”, “Tarbiya fanini o‘qitish metodikasi”, “Pedagogik mahorat” hamda boshqa majburiy fanlarning o‘qitilishi bo‘lajak pedagoglar va talabalarning ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiya ishlarini tashkil etishga tayyorlashda katta imkoniyatlar mavjud.

Yuqoridagi ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatga doir Qonun hujjatlari, oliy ta‘lim muassasalariga oid meyoriy hujjatlar tahlili ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatning bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorlash nuqtai nazaridan muhimligini qayd etgan holda, tadqiqotimiz doirasida “ma‘naviyat”, “ma‘rifat” va bu ikki tushuncha bog‘liqligidagi “ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat” tushunchalarini tadqiq qilishni taqozo etadi. Har qanday jamiyat, tuzum barqaror rivojlanishga intilbigina qolmasdan, o‘zining tabiatiga, mohiyatiga mos shaxsni voyaga etkazishga ham muhim e‘tibor beradi. Uning axloqiy, huquqiy, estetik meyorlari, ijtimoiy institutlarining faoliyati shu maqsadga bo‘ysundiriladi.

Ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat O‘zbekiston Respublikasining hozirgi globallashuv davrida dunyodagi mavqeyini belgilab beruvchi faoliyat hisoblanadi. O‘zbekiston jahonning eng ma‘rifatli mamlakatlari orasida o‘z o‘rnini topib, barqaror rivojlanish uchun mustaqil dunyoqarashiga ega bo‘lgan, milliy iftixor tuyg‘usi bilan yo‘g‘rilgan, ammo millatchilik va milliy mahdudlikdan holi, hur va erkin fikrlovchi, ayni vaqtda fuqarolik mas‘uliyatini to‘g‘ri tushunadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘z kasb-kori, ijtimoiy muhiti talab qiladigan darajada o‘zlashtirgan shaxsni tarbiyalashi ta‘lim va tarbiya jarayoni mazmuniga singdirilib bormoqda. Bu o‘rinda bo‘lajak o‘qituvchilarga qo‘yiladigan zamonaviy va global talablar ortib bormoqda.

Ma‘lumki, ma‘naviyat — inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o‘z ichiga oladi. Ma‘naviyat atamasining asosida “ma‘no” so‘zi yotadi[4].

Ma‘naviyat atamasi etimologiyasiga e‘tibor qaratilsa, g‘arb ilmiy tadqiqotlarida lotin tilidagi “Spiritus” so‘zidan hosil bo‘lgan tarzda ishlatiladi. “Spiritus” so‘zi “havo, nafas”, shuningdek “nafas olish, jon, ruh, g‘ayrat, jasorat, sezgi” ma‘nolarini anglatadi. “Spirituality” so‘zi “ruhiy” yoki “ichki hayot” tarzida ifoda etiladi[5, 14].

Taniqli faylasuf A.Jalolov ma‘naviyat atamasini “... insonning zot belgisi, uning faoliyatini tarkibiy qismi, ongi, aql-zakovatining mahsuli” [6, 17] deb ta‘riflagan bo‘lsa, S.O.Otamurodov “...har bir insonning ichki ruhiyati, aql-zakovati, uni o‘zini-o‘zi anglash, yaxshiliklarga, ezgu-niyatlarga to‘la qalbi, oldinga qarab yangi marralar sari ongli ravishda faollik ko‘rsata bilish va intilish salohiyatidir” [7, 8] deb ta‘riflagan.

M.Abdullayev va boshq. tadqiqotlarida ma‘naviyat atamasini pedagogik nuqtai nazardan tavsiflab, “ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, axloqiy (odob, burch, mas‘uliyat tuyg‘usi), ilmiy-ijodiy, amaliy malakalar (mehnat, ijodkorlik, iste‘dod, qobiliyat), diniy, mafkuraviy qarashlarning yaxlit birligidir”[8, 22] xulosalagan.

B.Ziyomammedov ham avvalgi ta‘rifni yanada to‘ldirib, ma‘naviyat “... bu kishining egallagan foydali bilimlari amaliy hayotida sinalib, ko‘nikma, malaka darajasiga o‘tgan va qalbiga singib, hayot tarzida aks etadigan ijobiy ijtimoiy sifatlar majmuidir” [9, 12] deb ta‘riflagan. Ma‘naviyat atamasiga berilgan ta‘riflardan xulosa qilish mumkinki, ma‘naviyat keng qamrovli va ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, ijobiy-ijtimoiy sifatlar majmuini bildiradi. Ma‘naviyat o‘z navbatida 4 ta tarkibiy qismlarga bo‘linadi: madaniyat, madaniy meros, mafkura va qadriyat [10, 24]. Mazkur tarkibiy qismlarni egallash orqali shaxs millat va jamiyat vakili sifatida ijobiy ijtimoiy sifatlarini egallab boradi.

Turli fan olimlari tomonidan ma‘rifat tushunchasiga berilgan tavsiflarning son

jihattan ham mazmun jihatdan ham salmog'i ko'p. B.Ziyomuhammadov ma'rifat tushunchasini "...kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti davomida ajdodlar tomonidan to'plangan bilimlarni kelajak avlodga etkazib berishga qaratilgan ta'lim-tabiyaviy jarayondir"[11, 21] deb ta'riflasi, boshqa manbada "(arabcha "arafa" – "bilmoq") ta'lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy g'oyalar majmui asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini o'stirishga qaratilgan faoliyat"[12, 116], deb ta'riflagan. Berilgan ta'riflar "ma'rifat" tushunchasini ta'lim-tarbiyaviy jarayon va kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan faoliyat ekanligini tushunish mumkin.

Muxtasar qilib aytganda, bu tushuncha ta'lim va tarbiya so'zlarining qo'shma birligini bildirib, bilim berish, olgan bilimlarni hayotda qo'llay olishlik, ko'nikma hosil qilish, avlodlar tarbiyasini odamlarga o'rgatish ma'nosida talqin etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 августдаги "Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-3907-сон Қарори / Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 15.08.2018 й., 07/18/3907/1706-сон; 14.12.2019 й., 06/19/5894/4161-сон.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги "Ўзлуксиз маънавий тарбия Концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 1059-сон Қарори / Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 03.01.2020 й., 09/20/1059/4265-сон, 19.06.2020 й., 09/20/391/0777-сон.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги "Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-5040-сон Қарори / Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.03.2021 й., 07/21/5040/0243-сон.

Ўзбекистон миллий энциклопедияси. М ҳарфи. –Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) кутубхонаси. – Б. 334.

Boyer M. Spirituality of Mission: Reflections for Holy Week and Easter. Cistercian Publications, 2017. – P.14.

Жалолов А. Мустақиллик масъулияти. –Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 17.

Отамуродов С.О. ва бошқ. Маънавият ва маърифат асослари. –Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б. 8.

Абдуллаев М ва бошқ. Маънавият. – Фарғона, 1999. – Б. 22.

Зиёмухамедов Б. Педагогик маҳорат асослари. – Т.: ТИВ-КИТОВ, 2009. – Б. 12.

Абдуллаев М., Умаров Э., Очилдиев А., Йўлдошев А., Абдуллаев А. Маданиятшунослик асослари. –Т.: Турон-Иқбол, 2006. – Б. 24.

Зиёмухаммадов Б. Маърифат асослари. –Т.: Чинор ЭҲК, 1998. – Б. 21.

Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат. Муаллифлар: М.Абдуллаев, М.Абдуллаева, Г.Абдуразақова ва бошқ. – Т.: Шарқ, 1998. – Б. 116.